

**TIBBIY INGLIZ TILINI BILISH DARAJASINING INGLIZ TILINI
CHET TILI SIFATIDA O‘ZLASHTIRGAN TIBBIYOT XODIMLARI
ORASIDAGI MULOQOTGA VA BEMORLAR XAVFSIZLIGIGA TA’SIRI**

Latipova D

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

..gmail.com

Kirish

Zamon bilan ham nafas rivojlanib borayotgan sog‘liqni saqlash muassasalarida samarali muloqot bemorlar xavfsizligi va yuqori sifatli tibbiy yordamni ta’minlash uchun juda muhimdir. O‘zbekistonda tibbiyot rivojlanyotgani asnosida ona tili yoki ikkinchi tili ingliz tili bolgan tibbiyot xodimlari ham bu sohaga jalb etilishi kengayib bormoqda. Ingliz tili ona tili bo‘lmagan tibbiyot xodimlari uchun tibbiy ingliz tilini yuqori darajada bilish tibbiy xatolardan qochish, xodimlar o‘rtasidagi muloqot davomida tushunmovchiliklarni oldini olish, bemorlarni to‘g‘ri tushunishni ta’minlash va tibbiy guruhlar o‘rtasidagi hamkorlikni osonlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Xalqaro sog‘liqni saqlash tizimlari tobora o‘zaro bog‘lanib borar ekan, ingliz tili xorijiy til (EFL) bo‘lgan tibbiyot mutaxassislarining ingliz tilini yuqori darajada bilishi bemor xavfsizligi va ish jarayonidagi muloqotiga qanday ta’sir qilishini o‘rganish zarur.

***Kalit so‘zlar:** tibbiy ingliz tili, EFL tibbiy mutaxassislar, bemor xavfsizligi, til to‘siqlari.*

Muloqot davomidagi qiyinchiliklar va yechimlari

Muloqot davomidagi qiyinchiliklar haqida so‘z borar ekan, shuni unutmaslik kerakki bemor va tibbiyot xodimi o‘rtasidagi samarali aloqa aniq tashxis va to‘g‘ri davolash uchun asosdir. Hozirgi kunda turizm rivojlanib bormoqda va ko‘plab xorijliklar, xorijlik talabalar O‘zbekistonga tashrif buyurmoqda. Shu bilan birga ko‘plab xusisiy shifoxonalarda xorijlik tibbiyot xodimlarini ham uchratish mumkin. Bu esa o‘z o‘rnida tibbiy ingliz tili darajasi yuqori bo‘lmagan tibbiyot xodimlari uchun

ko'pgina muammolar keltirib chiqaradi. Xususan, ingliz tili xorijiy til bo'lgan (EFL) tibbiyot xodimlari ko'p hollarda talaffuz, tibbiy jargon va xorijlik bemorlar bilan muloqotda qiyinchilik va tushunmovchiliklarga uchrashadi, bu esa simptomlarni noto'g'ri tushunib xato diagnoz qo'yish yoki dori-darmonlarni noto'g'ri buyurishga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, muloqot vaqtida ingliz tilida so'zlashuvchi bemor yoki ingliz tili birinchi til bo'lgan hamkasblar bilan "divergensiya" ya'ni kommunikatsiyadagi tafovut kelib chiqishi mumkin (Gasiorek & van de Mieroop, 2019). Misol uchun, bemor o'z og'rig'ini idiomatik iboralar yoki norasmiy tilda tasvirlaganida, EFL tibbiyot xodimi vaziyatning og'irligini noto'g'ri talqin qilishi va tegishli yordam ko'rsatilishi kechikishi mumkin. Bu esa og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish uchun tibbiyot oliy o'quv yurtlari tibbiy ingliz tilini bilish darajasini oshirishga qaratilgan turli o'quv dasturlarini amalga oshirdilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rol o'ynash simulyatsiyalari va kasbga oid standartlashtirilgan dialoglar kabi maqsadli tilni o'qitish EFL mutaxassislarining tibbiy sharoitlarda samarali muloqot qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi (Kim va boshq., 2019). Bundan tashqari, standartlashtirilgan tibbiyotga oid hujjatlarni o'quv dasturga qo'shish va tibbiy qaydlarni o'rganish til to'siqlari bilan bog'liq muammolarni kamaytirishi mumkin. Tibbiy ingliz tilini o'rgatish samarali bo'lishi o'quv daturini to'g'ri tuzilganligi va taqdim etiladigan ma'lumotlarni to'g'ri tanlanganligi ta'minlab beradi (Buranova & Bakiyeva, 2024). Misol uchun tibbiyot xodimining mutaxassisligi, til ko'nikmalari (o'qish, yozish, tinglash, gapirish)ga bo'lgan talabi va shu kabi bir qator faktorlar asnosida o'quv dasturi tuzib chiqilishi tavsiya etiladi.

Bemor xavfsizligida tibbiy ingliz tilining ahamiyati

Tibbiy ingliz tilini bilish darajasi yuqori bo'lmagan holatda ingliz tili birinchi til bo'lgan hamkasblar bilan kommunikatsiyaga kirib, tushunmasdan yoki tushuntira olmasdan lingvistik xatolikga yo'l qo'yish oqibatida ko'pgina bemorlar aziyat chekadilar va bu ish jarayonidagi salbiy oqibatlarining asosiy sababidir (Joint Commission, 2016). Ingliz tilida so'zlovchi mamlakatlarning ko'pgina shifoxonalarida, xususan, turli xil tillarda so'zlashuvch xodimlarga ega tibbiyot

muassasalarida, EFL tibbiyot xodimi tibbiy ma'lumotlarni to'g'ri talqin qilish va yetkazishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Misol uchun, Divi va boshqalar (2007) tomonidan olib borilgan tadqiqotda til to'siqlari sog'liqni saqlash muassasalarida bemorlar sog'lig'iga doir noxush hodisalar ehtimolini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan. Bundan tashqari, tibbiy terminologiyaning murakkabligi EFL tibbiyot xodimlari uchun qo'shimcha qiyinchilik tug'diradi. Misol tariqasida "hypertension" qon bosimi oshishi va "hypotension" qon bosimi tushishi kabi talaffuzi o'xshash atamalar noto'g'ri talqin qilinsa, osongina chalkashlikka olib kelishi mumkin. Estacio (2013) ma'lumotlariga ko'ra, tibbiy ingliz tilini bilishning yetishmasligi tashxislar, dori-darmonlar ko'rsatmalari va davolash rejalari bo'yicha jiddiy tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin, bu esa bemorning xavfsizligiga bevosita ta'sir qiladi.

Xulosa

Ingliz tili ona tili bo'lmagan tibbiyot xodimlarining tibbiy ingliz tilini yuqori darajada o'zlashtirishi bemor xavfsizligi va xorijlik hamkasblari bilan samarali muloqot o'rnatishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ish jarayonida ma'lumot almashishdagi lingvistik xatoliklar tibbiy xatolarga, noto'g'ri davolashga va bemorning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga olib kelishi mumkin. Tibbiy xodimning mutaxassisligiga moslashtirilgan o'quv dasturlari, tibbiy ingliz tilini o'rganishni samaradorligini oshirishi va ish jarayonida til bilan bog'liq to'siqlarini kamayishini taminlab beradi va bu o'z navbatida bemorlarga xizmat ko'rsatish sifatini sezilarli darajada oshiradi. Kelgusidagi tadqiqotlarda bemor xavfsizligi va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishning eng yuqori standartlarini ta'minlash uchun EFL tibbiyot mutaxassislari o'rtasida tibbiy ingliz tilini bilish darajasini oshirishning innovatsion usullari o'rganilishi kerak.

REFERENCES

1. Buranova, D., & Bakiyeva, G. (2024) ESP Teaching aims for professional medical communication. *The Peerian Journal*, 31, 88–91.

2. Divi, C., Koss, R. G., Schmaltz, S. P., & Loeb, J. M. (2007). Language proficiency and adverse events in US hospitals: A pilot study. *International Journal for Quality in Health Care*, 19(2), 60-67.
3. Estacio, E. V. (2013). Health literacy and community empowerment: It is more than just reading, writing, and counting. *Journal of Health Psychology*, 18(8), 1056-1068.
4. Gasiorek, J., & van de Mierop, D. (2019). The role of communication in medical encounters: Identity, language, and relational outcomes. *Journal of Language and Social Psychology*, 38(4), 469-486.
5. Joint Commission. (2016). The essential role of effective communication in safe healthcare. *Journal on Quality and Patient Safety*, 42(1), 23-28.
6. Kim, H., Son, Y., Park, H., & Lee, K. (2019). Development of a simulation-based training program for improving communication skills of EFL healthcare professionals. *BMC Medical Education*, 19(1), 1-9.